



2. Xoliqova M. “Boshlang‘ich ta’limda matematika darslarini innovatsion tashkil etish”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Mavlonova R. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. “STEM Education Guide”. – Washington, 2020.
5. Шадрина И. В. «Методика обучения геометрии в начальной школе». — Просвещение, 2015.
6. Джаббаров Н. А. «Методы формирования геометрических знаний у младших школьников». — 2018.
7. Воторникова А. С. «Методические приёмы изучения элементов геометрии в начальной школе (1 4 кл.)». — 2019.
8. Квардицкая И. О. «Особенности формирования геометрических понятий у младших школьников согласно требованиям ФГОС НОО». — 2022.
9. Дубина Д. «Формирование геометрических понятий у детей младшего школьного возраста». — 2017.

ELNING SUYUKLI FARZANDI

Adashaliyeva Oygul Oybek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

“Fizika” yo‘nalishi birinchi bosqich talabasi.

Telefon nomer: +998770668480

E-mail: adashaliyevaoygul@gmail.com

Ilmiy raxbar: Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining buyuk farzandi, sarkarda, davlat arbobi shoir va olim Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi va faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Unda Boburning yoshligidan boshlab Farg‘ona taxtiga chiqishi, Movarounnahr va Afg‘onistonda olib borgan siyosiy kurashlari, Hindistonda Boburiylar imperiyasi barpo etishdagi xizmatlari yoritilgan.

Maqolada Boburning “Boburnoma” asari alohida tahlil qilinadi-bu asar nafaqat tarixiy manba balki o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri sifatida baholanadi. Unda Boburning o‘z hayoti, xalqi, siyosiy voqealari aks etgan. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z davrida amalga oshirgan ishlari va bugungi kunda yoshlar uchun ibratli shaxs sifatidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, o‘zbek adabiyoti, davlat arbobi, sarkarda, shoir, ilm-fan, madaniyat, yoshlar uchun ibrat, tarixiy meros.

ЛЮБИМЫЙ СЫН НАРОДА

Аннотация: Встаты рассказывается о жизни, творчестве и деятельности великого сына узбекского народа - полководца, государственного деятеля, поэта и учёного Захириддина Мухаммада Бабура. С ранних лет Бакур проявлял интерес к науке, литературе и государственному управлению.

Особое внимание в статье уделено произведению Бабура “Бакур-наме”- это не только исторический источник, но и одно из жемчужин узбекской литературы. В нём отражены жизнь Бабура, судьба народа и политические события его времени. В статье раскрывается роль Захириддина Мухаммада Бабура как выдающейся личности своего времени и его значение как примера для молодёжи современности.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бакур, Бакур-наме, узбекская литература, государственный деятель, полководец, поэт, наука, культура, пример для молодёжи, историческое наследие.

A BELOVED SON OF THE NATION

Abstract: The article discusses the life, creative work, and activities of Zahiriddin Muhammad Babur - the great son of the Uzbek nation, a commander, statesman, poet, and scholar. From an early age, Babur



showed interest in science, literature, and state governance. The article pays special attention to Babur's work "Baburnama", which is not only a historical source but also one of the pearls of Uzbek literature. It reflects Babur's life, his people's destiny, and the political events of his time. The article reveals Babur's role as an outstanding figure of his era and as an inspiring example for today's youth.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, Babur Ama, Uzbek literature, statesman, commander, poet, science, culture, example, for youth, historical heritage.

KIRISH

“Zahiriddin Muhammad Bobur - o‘zbek xalqining faxri bo‘lmish buyuk sarkarda, shoir, va davlat arbobi hisoblanadi. [2] U 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan. [1] Bobur aql-zakovati, harbiy iste’doti va davlat boshqaruvidagi mahorati tufayli qisqa vaqt ichida u yirik hukmdorga aylangan. U Temuriylar sulolasiga mansub bo‘lib, bobosi Abu Said Mirzo va otasi Umarshayx Mirzo bo‘lgan. Yoshligidanoq davlat ishlari harbiy san’atga qiziqqan. 12 yoshida u Andijon taxtiga o‘tirgan. Bobur turkiy va forsiy tillarda she’rlar yozgan madaniyat va adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning eng mashhur asari - Boburnoma bo‘lib, bu asar o‘z davrining tarixiy manbasi sifatida juda katta ahamiyatga ega. Maqolada Boburning hayoti siyosiy faoliyati, adabiy merosi va bugungi kunda uning qoldirgan madaniy me’rosining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.” [2]

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan. U Amir Temurning beshinchi avlodi bo‘lgan. Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi - Qutlug‘ Nigor xonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan va harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha Temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziq boshlaydi. Bobur 1494-yilda, atiga 12 yoshida, otasi Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng Farg‘ona taxtiga o‘tiradi. U Samarqandni ham qo‘lga kiritish uchun bir necha bor kurash olib boradi, chunki bu shahar Temuriylar merosi sifatida katta ahamiyatga ega edi. Bobur ko‘plab to‘siqlarga qaramay, o‘z orzusidan-qudratli va adolatli davlat barpo etish niyatidan voz kechmaydi. 1504-yilda Bobur Kobulni zabt etadi va bu yerdan u keyinchalik Hindiston sari yurishlarini boshlaydi. Nihoyat u 1526-yilda Panipat jangida Sulton Ibrohim Lo‘diy qo‘shinini tor-mor keltirib, Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos soladi. Bu davlat keyinchalik - Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Aurangzeb davrida yanada mustahkamlanadi. Boburning siyosiy kurashlari faqat taxt uchun emas, balki adolat, tartib ma’rifat va vatan ravnaqi uchun bo‘lgan edi. Uning siyosiy tajribasi va davlat boshqaruvidagi uslubi keyingi avlod hukmdorlari uchun ham ibrat maktabiga aylandi. [2]

BOBURNING ADABIY MEROSI

Bobur Mirzo shuhratda Mir Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so‘z san’atkori, shoir va adibdir. Badiiy mahorat bobida ham betakrordir. Uning ijodidagi tarjimai holini xususiyati o‘sha davr haqida qimmatli manbalar berishi bilan ahamiyatlidir. Qalb kechinmalari ro‘y-rost, samimiyat ila bitilgani bilan ham ko‘ngillarni zabt etgan. Shodlikdan ko‘ra o‘z yurtida g‘ariblikni afzal bilgan alloma asarlari yuraklarni larzaga soladi, Vatanni sevisga undaydi.

Hech bir shoir vatandan yiroqlik fojiasini Bobur Mirzachalik ko‘ptomonlama va ta’sirchan ifodalay olmagan bo‘lsa kerak. [2]

Shoir o‘z esdaliklarida o‘z ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlanganini aytadi. “Ul fursatlarda biror ikki bayt aytur edim”, deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o‘rtasida yozishma boshlanadi. [1]

Hindistonda mashhur bo‘lgan me’moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, Boburiylar va avlodlari davrida kengaydi, deyish mumkin.

“Boburnoma” o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hindistondan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

Bobur o‘z she’rlarini asosan turkiy tilda, ya’ni o‘zbek tilida yozgan. U turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan va uni adabiy darajaga ko‘targan. Shu sababli, Bobur o‘zbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qo‘shgan shoir sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi. Uning go‘zal, ruboiy va tuyuqlarini insoniy tuyg‘ular, sevgi, sadoqat, hayot falsafasi va vatanparvarlik ruhida yozilgan. Boburning adabiy



merosi bugungi kunda ham jahon miqyosida o‘rganilmoqda. Bobur o‘z ijodi bilan o‘zbek xalqining g‘ururi milliy madaniyatining ramziga aylangan. [2]

BOBURNING SIYOSIY FAOLIYATI

Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati uch asosiy bosqichda kechgan: Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashlar, Afg‘onistonda mustaqil davlat barpo etish va Hindistonda Boburiylar imperiyasining barpo etilishi.

Bobur dastlab Samarqandni egallashga harakat qilardi, chunki u shahar Temuriylar qudratining markazi hisoblanardi. 1497-yilda Bobur nihoyat Samarqandni qo‘lga kiritdi. Biroq shahar ichida noroziliklar, ocharchilik va Shayboniyxonning bosqini sababli u bu muvaffaqiyatni uzoq saqlab tura olmadi. 1501-yilda Shayboniyxon bilan bo‘lgan janglarda Bobur mag‘lubiyatga uchradi va Farg‘ona ham, Samarqand ham qo‘lidan ketdi. Shu yillardagi og‘ir sinovlar Boburning siyosiy tajribasini oshirdi, u o‘zini yanada kuchliroq rahbar sifatida tarbiyaladi. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida bu davrni shunday eslaydi: [2] “Shunday zamon keladikim bir g‘ishtli uy, bir quloq yer qolmadi. Ammo umidni qo‘ymadim, Allohdan madad tiladim”. [1] Bu so‘zlar Boburning mustahkam irodasini, qat’iyatini va o‘z xalqiga sadoqatini ko‘rsatadi. [2]

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur - o‘z davrining buyuk sarkardasi, shoiri va davlat arbobi bo‘lgan. U o‘zining kuchli irodasi, keng dunyoqarashi va ilmga bo‘lgan muhabbati bilan bizni, o‘z xalqini va butun insoniyatni ma’naviy boylik bilan boyitgan. Biz Boburning siyosiy faoliyatini, adabiy ijodini va “Boburnoma”sini o‘qib juda katta tasavvurga ega bo‘ldik. Bobur merosi bizni vatanni sevisga, bilim olishga, adolatli bo‘lishga, insonparvarlik va halollikka chorlaydi. U yaratgan qadriyatlar hozirgi biz yoshlar uchun ibrat maktabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2008.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

EDUVISION: SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI ELEKTRON DARS JADVALI TIZIMI ORQALI MAKTABDA RAQAMLI BOSHQARUVNI JORIY ETISH

Exromjon Axmedov Maxmudjon o‘g‘li

Yangiq‘org‘on tumani 49-maktab Informatika va AT fani o‘qituvchisi

Maxmudjon Mirzamurodov Axmedovich

Yangiq‘org‘on tumani 49-maktab Informatika va AT fani o‘qituvchisi

E‘zoza Valiyeva Sotimboyevna

Yangiq‘org‘on tumani 49-maktab Informatika va AT fani o‘qituvchisi

Vazira Axmedova Baxodir qizi

JASMU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan “EduVision” — elektron dars jadvali tizimi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi — dars jarayonlarini raqamlashtirish, vaqtni boshqarish samaradorligini oshirish, hamda ta’lim muhitini avtomatlashtirishdir.

“EduVision” tizimi sun’iy intellekt (AI) yordamida maktabdagi real vaqtli jarayonlarni kuzatib boradi va ularga mos holda axborotlarni displeyda avtomatik yangilaydi. Tizim dars jadvalini ko‘rsatishdan tashqari, tanaffus va zvanok vaqtlarini avtomatik tarzda boshqarish, navbatchi sinfni e‘lon qilish, bayramlar va ob-havo sharoitlari haqida ma’lumot berish imkoniyatiga ega. “EduVision” tizimi o‘quv muassasalarida avtomatlashtirilgan boshqaruvni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish, dars jarayonida inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish hamda raqamli maktab infratuzilmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: EduVision, elektron dars jadvali, sun’iy intellekt, AI, raqamli ta’lim, maktab avtomatlashtirish, real vaqt tizimi, dars jarayoni, elektron boshqaruv, ta’lim texnologiyasi, raqamli maktab, avtomatik jadval, zvanok tizimi, integratsiyasi, navbatchi sinf, EdTech, interaktiv displey, HTML, CSS, JavaScript.